



Uchqun Nazarovning “Chayon yili” romani tarjimasida keltirilgan metafora va metonimiyaning in’ikosi va tarjimada qayta tiklash masalasi.

Jumanazarova Kamola Ibrohim qizi

Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti

Roman-german filologiyasi kafedrası stajor-o’qituvchisi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada gap Uchqun Nazarovning “Chayon yili” romani tarjimasidagi metonimiya va metaforaning qay tarzda aks ettirilganligi hamda tarjimada mazkur ko’chim turlarini qayta yaratishdagi mutarjimning ma’suliyati haqida ketadi. Asar tarjimasidagi ma’no va mazmun mushatarakligi va bu boradagi tarjimonning sa’y harakatlari yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *Asliyat, muqobil til hodisasi, matnning yuqumlilik darajasi, asliymonand, o’girma, lisoniy vositalar, til birliklari.*

Ma’lumki, asarga o’zgacha bezak beradigan, uni jonlantiradigan va yuqumlilik darajasini oshiradigan omillardan biri bu ko’chma ma’noli so’zlarni o’z o’rnida qo’llash sanaladi. Shu boisdan ham har qanday muallif o’z ijodida iloji boricha mazkur troplardan kengroq foydalanishga intiladi. Uchqun Nazarovning “Chayon yili” romani tarjimasida ko’pgina o’rinlarda ko’chma ma’no qayta yaratilgan deya olamiz. Bunga esa tarjimon Ingeborg Baldaufning nafaqat o’zbek tili balki, o’zbek millati tarixi, urf-odatlarini ham nihoyatda yaxshi bilganligidadir deya aytish lozimdir. O’girmada ko’chim qo’llanilmay qolgan holatlarni tahlil qilganimizda, shunga amin bo’ldikki, asliy matnda ifodalangan fikrni o’girmada muqobilini topib qo’llashga harakat qilgan va buning uddasidan chiqqan mutarjim.



“¹Tarjimaning asliyatga shaklan va mazmunan monand tarzda yaratilishining birdan-bir sharti tarjimonning o‘z tilida asliymonand lisoniy vositalar tanlab iste’foda etishidadir. Bu ma’suliyat uning zimmasiga avvalo asliyat ma’no va vazifasini bekami-ko’st idrok etish, so’ngra xotirasida shakllangan fikrni o‘z tili madaniyati va me’yori asosida to’la-to’kis ifoda etish vazifasini yuklaydi.

Goho muayyan bir fikr ifodasi uchun asliyatda qo’llanilgan lisoniy vositaning lug’aviy ekvivalenti yordamida o’girilishi natijasida hosil bo’lgan ifodani tarjima tili me’yori, madaniyati hazm qila olmaydi. Bunday paytda mazkur fikr ifodasi uchun tarjima tilida mutlaqo o’zgacha semantikaga ega lisoniy vositadan foydalanish zarurati yuzaga keladi. Ayni vosita asliyatdagi birlik singari o’zining moddiy-mantiqiy ma’nosida bo’lishi ham majoziy xususiyatga ega so’z yoki tilda barqarorlik kasb etgan so’z birikmasi shaklida kelishi ham mumkin. Ushbu hol har qaysi til birliklarining voqelikni o’ziga xos tarzda ifoda etishini ko’rsatadiki, bunday hollarda ikki til birliklari orasidagi muvofiqlik matniy xususiyat kasb etadi.

Aniqrog’i, asl nusxada aks etgan muayyan bir fikr tarjima tilida bir nechta imkoniy namunalar yordamida ifoda etiladiki, bu hol san’atkor oldiga ayni namunalarning kontekst talabidan kelib chiqib, asliyatga eng mos keladiganini tanlash vazifasini qo’yadi”

Biz ishimizga asos qilib olgan romanning nemischa tarjimasida ham tarjimashunos olim yuqoridagi fikrga asosan yondashgan hollarni ko’rishimiz mumkin. Xususan, romandan olingan quyidagi keltirmoqchi bo’lgan misolimiz ayni fikrimizning isbotidir: ²“*Ammo Chorsu bozori machitning biqinida qalashgan do’konchalarning biridagi zargar, avval buyumni ko’rish kerak, taxminan aytib bo’lmaydi, balki qimmat narsadir, balki jezdir, olib keling*

¹ Tarjima nazariyasi. I.G’afurov, N.Qambarov Toshkent 2012. 69 b

² Uchqun Nazarov “Chayon yili”, Toshkent 2013, 187 bet



dedi” Mazkur parchada *machitning biqini* o‘xshatish asosidagi ko‘chim sanaladi, ya’ni machitda biqin bo‘lmaydi, balki odamda biqin, tananing yon qismidagi yumshoq joyiga aytiladi. Tashqi o‘xshashlik asosida ma’no ko‘chishi yuz bergan ushbu gapda. Mazkur gapning nemis tilidagi tarjimasiga e’tiborimizni qaratsak: ³“*Aber der Goldschmied in einen der kleinen Läden, die an die Klanke der Moschee beim Chorsu-Basar eingebaut waren, meinte, zuerst müsse er das Stück sehen, so ungefähr ließe sich das nicht sagen, vielleicht ist es ein wertvolles Stück, vielleicht aber ist es nur Messing, sie sollte es herbringen*” Demak mutarjim tarjima matnida ham “*machitning biqini-die Klanke der Moschee*” ma’no ko‘chish turini qo‘llagan va ma’no tarjimada asliyatdagiday saqlangan bo‘lsada, so‘zlar sonida farq sezilib turibdi. Asliyatdagi gapda 24 ta so‘z ifodalangan bo‘lsa, tarjimada esa xuddi shu parcha 49 ta (artikllar bilan) so‘z qo‘llanilgan. Albatta biz buni nemis tilida artikllar, ko‘makchi va yuklamalar evaziga so‘zlar soni ikki barobarga ortgan deyishimiz mumkin, biroq mazmun bilan birgalikda shakl mushtarakligi tarjimaning asosiy qonuniyatlaridan hisoblanadi. Zero, bu yerda tarjimon bizning fikrimizcha, tarjima qilish san’ati qonuniyatlaridan qisman yiroqlashgan va erkin yondashgan.

Xulosa qilib aytish joizki, Uchqun Nazarov “Chayon yili” romanining tarjimasi ham nihoyatda ustalik bilan tarjima qilingan asarlar sirasiga kiradi. Tarjimon asarda ifodalangan g‘oyani nemis tilida kitobxonga to‘la-to‘kis yetkazib berishga harakat qilgan. Shu jumladan ko‘chma ma’noli so‘zlar tarjimasiga ham jiddiy yondashib, ma’nosini saqlab qolishga erishgan.

Tarjima san’atida badiiy tasviriy vositalarni qayta yaratish bo‘yicha olib borilgan ishlarning ko‘lami diqqatga sazovordir. Jumaladan, o‘girmada adekvatlikka erishish uchun avvalambor mazmun yetakchi o‘rinda turadi, shakl esa ikkilamchidir. Shakl va mazmun mushtarakligi aks etgan tarjima esa mukammal tarjima sanaladi.

³ Ingeborg Baldauf “Das Jahr des Skorpions” Berlin, Dagvli Verlag, GmbH 2002, S,213



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tarjima nazariyasi. I.G'afurov, N.Qambarov Toshkent 2012. 69 b.
2. Uchqun Nazarov "Chayon yili", Toshkent 2013, 187 bet.
3. Ingeborg Baldauf "Das Jahr des Skorpions" Berlin, Dageyeli Verlag, GmbH 2002, S,213.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati, Moskva 1981.